



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2023 - yil « 4 » iyun 206 -son

Toshkent shahri

**Vazir o‘rinbosarini nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish
bo‘yicha mas’ul etib belgilash to‘g‘risida**

Qonunchilik hujjatlarining ijrosini ta’minlash va ijtimoiy sheriklik va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son Farmonida vazirlik va idoralarga amaldagi shtatlar soni doirasida rahbar o‘rinbosarlaridan birini nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha mas’ul etib belgilash bo‘yicha topshiriq yuklatilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021 – 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmonining 7-bandida davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari (keyingi o‘rinlarda – jamoatchilik kengashlari) tarkibining kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etishi;

jamoatchilik kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi bilan kelishilgandan so‘ng davlat organi rahbarining qarori bilan har 2 yilda tasdiqlanishi;

jamoatchilik kengashining umumiy a’zolari soni 15 nafardan kam bo‘lmaslik zarurligi;

davlat organlarining jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi (yoki axborot xizmati) jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblanishi, ular faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta’minlash belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining o‘rinbosari – S. Buzrukhonov nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha mas’ul etib belgilansin.

3. Jamoatchilik kengashining ishchi organi Axborot xizmati (N. Abduqunduzova)ga:

jamoatchilik kengashi, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ishlash hamda Vazirlikning ular bilan hamkorlikni doimiy ravishda amalga oshirish;

amalga oshirilgan ishlar to'g'risida vazir o'rinbosari S. Buzrukxonovga doimiy ravishda axborot kiritib borish vazifasi yuklansin.

4. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



K. Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**